

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.A.Saipova Kompozitsion bog'lanishli nutqni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	5
A.T.Nazarov Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sport turizmiga oid bilimlarida irodaviy sifatlar	9
E.T.Umarov Falsafa ta'limi asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari	12
M.A.G'ofurova Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	16
M.M.Mo'minova, V.T.Jo'rayev, M.M.Turdimatov Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari	21
L.S.Isroilova Talabalarni dasturlashga oid mustaqil ta'limni tashkil etishda virtual muhitlarning amaliy samaradorligi	27
G.T.Hojikarimova Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ta'limni tashkil etish	31
A.A.Abdumanofov Проблемы и решения оценки практических навыков студентов медицинских учебных заведений	36
H.H.Бобожонов, П.Д.Мамутов Влияние различных методов силовой тренировки на показатели прыгучести и скорости в волейболе у студентов вузов	40
M.A.Esonmirzayeva Bo'lajak pedagoglarda texnologik metakompetentlikni shakllantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar	43
M.A.Esonmirzayeva Metakompetensiyalarni samarali boshqarishga yordam beruvchi ko'nikmalar	47
E.E.Tadjibayev Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zaruriyati	51
S.A.Maxmudova Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish	55
M.E.Madaminova Talabalarining texnik ijodkorligini rivojlantirish mazmuni va metodik asoslari	59
M.B.Kamoldinov Bo'lajak pedagoglarda konfliktologik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy metodik tizimi	63
Z.A.Davlataliyeva Talabalarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishga doir faoliyatini tashkil etish usullari	67
F.A.Hamdamiyeva Bo'lajak geografiya o'qituvchilarini o'quv jarayonida loyiha texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash modeli	71
B.A.G'ofurova Oliy ta'lim jarayonida talabalarda konseptual fikrlashni rivojlantirish metodikasini amaliyotga joriy etish	75
N.O.Xaydarova Tibbiyot oliy ta'lim talabalarining refleksiv madaniyatini rivojlantirish omillari	78
U.I.Obidjanov Zoologiya darslarida zamonaviy interaktiv metodlardan foydalanish: samaradorlik va	



UO'K: 378:796.5:371.134:159.9

**BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINI SPORT TURIZMIGA OID
BILIMLARIDA IRODAVIY SIFATLAR****ВОЛЕВЫЕ КАЧЕСТВА В ЗНАНИЯХ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ ПО СПОРТИВНОМУ ТУРИЗМУ****STRONG-WILLED QUALITIES IN THE KNOWLEDGE OF FUTURE PHYSICAL
EDUCATION TEACHERS IN SPORTS TOURISM****Nazarov Anvarjon Tug'unboyevich** University of Business and Science Maktabgacha-boshlang'ich ta'lim va jismoniy tarbiya kafedrası
dotsenti v.b., p.f.f.d. (PhD) dotsent**Annotatsiya**

Ushbu irodaviy xulq-atvor-maqсадga yo'nalganlik, o'zini o'zi nazorat qilish, vaziyat tug'ilganda u yoki bu harakatdan saqlanish, ya'ni o'z xulq-atvorini egallash hamdir. O'z xulq-atvorini nazorat qilish qobiliyati voyaga yetgan shaxsning muhim xususiyatidir. "Shaxsiy xulq-atvorni egallaganidan keyingina biz shaxsning shakllanishi haqida bayon etilgan.

Аннотация

Данное волевое поведение представляет собой целенаправленность, самоконтроль, воздержание от того или иного действия при возникновении ситуации, то есть овладение собственным поведением. Умение контролировать свое поведение – важная характеристика взрослого человека. «О формировании личности нам говорят только после приобретения личностного поведения.

Abstract

This volitional behavior represents purposefulness, self-control, abstinence from one or another action when a situation arises, that is, mastering one's own behavior. The ability to control one's behavior is an important characteristic of an adult. "We are told about personality formation only after acquiring personal behavior.

Kalit so'zlar: Ta'lim va tarbiya jarayoni, iroda, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, o'ziga ishonch, shuningdek, o'zini tuta bilishida, o'z xatti-harakatlari, histuyg'ulari, xulq-atvorini boshqara.

Ключевые слова: воспитательно-тренировочный процесс, укрепление уверенности в воле, силах и возможностях, мужество и патриотизм, уверенность в себе, самообладание, контроль своих действий, чувства, поведения.

Key words: The process of education and upbringing, strengthening the will, confidence in one's strength and capabilities, courage and patriotism, self-confidence, as well as the ability to control oneself, control one's actions, feelings, behavior.

KIRISH

Irodaviy xulq-atvor-maqсадga yo'nalganlik, o'zini o'zi nazorat qilish, vaziyat tug'ilganda u yoki bu harakatdan saqlanish, ya'ni o'z xulq-atvorini egallash hamdir. O'z xulq-atvorini nazorat qilish qobiliyati voyaga yetgan shaxsning muhim xususiyatidir. "Shaxsiy xulq-atvorni egallaganidan keyingina biz shaxsning shakllanishi haqida gapirishimiz mumkin", deb yozadi L. S. Vigotskiy [1, 146]. Irodaviy sifatlar bu – irodaviy tartiblashuvning xususiyati bo'lib, qiyinchiliklarni yengish bilan taqozolangan xarakterning aniq vaziyatda namoyon bo'lishidir [1, 39-50]. Rus olimi A. S. Punining fikricha, "... har bir insonning irodaviy sifatleri yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi, lekin turli shaxslarda, hatto, bir shaxsning boshqa xil faoliyat bilan shug'ullanishi natijasida ham irodaviy sifatlerin tuzilishi o'zgaradi. Shuning uchun irodaviy sifatler o'zaro bog'lana oladigan, ta'sirlanadigan, harakatlantiruvchi, dinamik tizim sifatida ifodalanadi" [1, 93]. Irodaviy sifatler – bu qiyinchiliklarni yengishda shakllanadigan xarakter bilan bog'liq aniq vaziyatlarda namoyon bo'luvchi va shaxs xususiyatlariga aylangan irodaviy boshqaruvning o'ziga xos jihati [1, 107].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Iroda masalasi bilan yarim asr shug'ullangan yirik psixolog olim V.I.Selivanov irodani tadqiq etishning negizidan kelib chiqqan holda, shaxsiy tajribalari natijalariga asoslanib ayrim xulosalar ham chiqaradi: 1) iroda – bu shaxsning o'z faoliyatini va tashqi olamdagi o'zini o'zi boshqarish shakllarini anglashning tavsifi; 2) iroda – bu inson yaxlit ongining bir tomoni hisoblanib, u ongning barcha shakllari va bosqichlariga taalluqli; 3) iroda – bu amaliy ong, o'zgaruvchi va qayta quriluvchi olam, shaxs tomonidan o'zini ongli idora qilishlik holati; 4) iroda – bu shaxsning hissiyoti va aqlzakovati bilan bog'liq bo'lgan xususiyati, lekin qaysidir harakatning motivi hisoblanmaydi[3,222-223]. Boshqa bir olim V.A.Krutetskiy o'z izlanishlarida irodaviy sifatlar tarkibiga sobitqadamlilik, mustaqillik, qat'iyatlilik, intizomlilik, dadillik, jasoratlilik va tirishqoqlikni kiritadi. Ularning ta'rifiga, foydalanish imkoniyatiga, shakllantirish yo'l-yo'riqlariga to'xtalib o'tadi. P.M.Yakobson esa irodaning muhim sifatlarini mustaqillik, qat'iyatlilik, tirishqoqlik, o'zini uddalashga ajratadi[4].

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqotchi Ye.P.Ilinning iroda sifatlariga o'zining shaxsiy munosabati mavjud bo'lib, u o'ziga xosligi bilan boshqa psixologlar ta'rifidan ajralib turadi. Muallif tomonidan tuzilgan rangli jadvalda irodaning tirishqoqlik sifati tartib qatorida chidamlilikdan keyin joylashtirilgan bo'lib, unga mana bunday ta'rif berilgan: "Tirishqoqlik – bu qiyinchilik va muvaffaqiyatsizliklarga qaramasdan, maqsadga erishish yo'lida uzluksiz ravishda intilishning paydo bo'lishi", degan fikr unda tasdiqiy holatda mujassamlashtirilgan. Ilmiy izlanuvchi D.N.Ushakovning mulohazasiga qaraganda, "chidam" tushunchasi mana bunday ma'nolarni anglatib kelishi mumkin: 1) aksil harakatni amalga oshirmasdan, shikoyatsiz, hasratsiz, halokatli, mushkul, noxush hissiy holatlarni dildan kechirish; 2) aksil harakatni amalga oshirmasdan, balki o'zgarishlarni kutgan tarzda taqdir haziliga rozi bo'lishlik; 3) biror psixologik holatga muhtalolik; 4) nima bilandir kelishishlik, biror ortiqcha kechinmaga parvo qilmasdan, og'irchilikni muruvvatkorona o'tkazishlik; 5) imkon boricha barcha narsalarga amal qilishga ko'nikishlik; 6) shoshqaloqlikka yo'l qo'ymaslik; 7) paysalga solishga, kutishga imkoniyat yaratishlik. Fikrlardan ko'rinib turibdiki, tadqiqotchi D.N.Ushakovning mulohazalarida originallik, o'ziga xoslik yorqin namoyon bo'lmoqda, lekin unga ekspert bahosi berishning mavrudi emas[5].

Yana bir olim D.Pristli iroda deb inson harakat qilish to'g'risidagi qarorni qabul qilganidan so'ng hosil bo'luvchi intilish yoki istakni atashni taklif qiladi. Chunki istalgan predmet ko'z o'ngimizda bo'lsa-da, harakat qilish xohishi har doim ham vujudga kelavermaydi, buning uchun harakat qilish istagi bo'lishi shart. Bu intilish va harakatlar doimo motivlar tomonidan belgilab beriladi, oqibatda irodaning hamisha sababi bo'ladi degan hukmga keladi olim. V.Vindelbandt iroda tushunchasi ostida alohida istak va mayllarni o'zida mujassamlashtiruvchi voqelikni tushungan. Iroda o'z mohiyatiga ko'ra shaxsni tavsiflovchi, uning asosini tashkil etuvchi doimiy motiv (xohishistak) lar majmuasidir[2].

Ma'lumki, irodaviy sifatlar jismoniy tarbiyada inson harakatlarini psixofizik tartibga solishning mexanizmi sanalib, u murakkab vaziyatlarni yengish jarayonida namoyon bo'luvchi shaxs xususiyatlaridan biridir. Jismoniy ta'limda irodaviy sifatning namoyon bo'lishi nafaqat, muvaffaqiyatga intilish, muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik balki, insonda shakllangan axloqiy munosabatlarning shakllanganligi bilan ham tushuntiriladi. Hozirgi kunda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarda irodaviy jihatdan tayyorlash ishlari dolzarb ahamiyat kasb etib qolmasdan, uni yanada rivojlantirishni talab etmoqda. Tadqiqotchi olim M.Ya.Basov ta'kidlaganidek, sportda irodaviy mashqlantirishning psixologik usullari yetarlicha rivojlantirilgan. Bundan tashqari, maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, psixologik va pedagogik xarakterdagi ilmiy-uslubiy asarlarda, sportchilarning irodasi, irodaviy jihatdan tayyorlash muammolariga qiziqish sezilarli darajada kamaygan[6]. Demak, iroda inson faoliyati, muomalasi va xulq-atvorining muhim xususiyati, uning turmush mazmunini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Irodasi mustahkam, kuchli odamda maqsad bilan faoliyat, xulq-atvor izchilligi kuzatiladi. Shaxs oldiga qo'yilgan maqsadga erishishga nisbatan ishonch tuyg'usi irodaning kuchquvvati va bosh mezonidir. Zero, qat'iy ishonch maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga ham jismonan, ham ruhan asos yaratadi. Har bir shaxsda irodani rivojlantirish va uni mustaqil ravishda tarbiyalash uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Irodani ongli ravishda tarbiyalash jarayoni qanchalik tez boshlansa, shunchalik ko'p muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.

Ilmiy psixologik adabiyotlarga nazar soladigan bo'lsak irodaviy sifatlarni turli talqinda yoritishga harakat qilishgan va quyida ularning psixologik tavsifi to'g'risida mulohaza yuritamiz.

Jasorat-og'ir va xavfli sharoitlarda, g'ayrioddiy qiyinchiliklarga qarshi kurashda yaqqol namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi o'z-o'zini nazorat qilish. Jasorat, chidamlilik va qat'iyat talab qiladi.

Maqsadga intilish. Irodaviy jarayonda odamning maqsadni anglashi eng muhim rol o'ynaydi. Kishining ko'zlagan maqsadi qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, u o'z maqsadini amalga oshirish uchun shunchalik faol kirishadi. Maqsadga intilish – shaxsning o'zidagi barcha kuch-quvvatlarini oldiga qo'ygan maqsadiga qaratish, o'z xatti-harakatlarini ko'zlagan maqsadiga erishish vazifasiga bo'ysundirish, har qanday qiyinchilik va to'siqlarga qaramay, maqsadni amalga oshirish uchun intilish qobiliyati.

XULOSA

O'zini tuta bilish. O'zini tuta bilish ham kuchli irodaning sifatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunday irodaviy sifatlar odamning o'zini tuta bilishida, o'z xatti-harakatlari, histuyg'ulari, xulq-atvorini boshqara olishida gavdalanadi. O'zini qo'lga ola bilgan, sabrbardoshli kishi ahd qilgan qarorini bajarishga o'zini majbur eta oladi. Lekin bunda uning ahd qilgan qaroriga qarshilik ko'rsatuvchi istak va mayllariga erk bermaydi. U o'z xatti-harakatlarini boshqarishning uddasidan chiqadi, noto'g'ri, o'ylamasdan ish qilishda o'zini to'xtatib qola biladi. O'zini tuta bilish – odamning o'z xatti harakatlari, his-tuyg'ulari, xulq-atvori, faoliyati, muomalasi kabilarni boshqara bilishda aks etuvchi iroda sifati hisoblanadi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarida o'z-o'zini ixtiyoriy tartibga solish shuningdek, ularda birlamchi irodaviy sifatlarni rivojlantirish masalalari, sport mashg'ulotlarining dastlabki bosqichida juda muhimdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ильин Е.П. Психология воли. – СПб.: Питер, 2009. – С.93,107,146.
2. Иванников В.А., Эйдемн Е.В. Структура волевых качеств по данным самооценки // Психологический журнал. – Москва, 1990. – №3. – С. 39-50.
3. Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. Тошкент, 2008 йил. –Б. 222-223
4. Хайриев Х. Ирода психологияси Тошкент, 2010 йил. 99-103
5. Жўраев Ў.Т. "Иродавий фаолликнинг вазиятли ва шахслилик детерминантлари" магистрлик диссертацияси Тошкент, 2016 йил.
6. Басов М.Я. Воля как предмет функциональной Психологии. Методика психологических наблюдений за детьми. - М., 2008. – С.89.
7. [https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Motiv_\(psixologiyada\)](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Motiv_(psixologiyada))
8. <http://bilig.academiascience.org>